

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
ADABIYOTSHUNOSLIK KAFEDRASI

II kurs talabalari uchun O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi fanidan

MA‘RUZA MATNI

Ma‘ruzachi: SHODMONOV NAFASXON NAMOZOVICH

Mavzu: “MUHAMMADRIZO OGAPIY HAYOTI VA IJODI”

Qarshi - 2014

MAVZU: MUHAMMADRIZO OG'AHY HAYOTI VA IJODI
(ma'ruza – 2 soat)

Mavzu yuzasidan ma'ruza texnologiyasi

Mashg'ulot shakli	Tematik-informatsion ma'ruza
Mashg'ulot rejasi	1. Ogahiy hayoti va ijodi. 2. Ogahiy ijodining o'rganilishi. 3. Ogahiy lirikasi: "Ta'viz ul ochiqin". 4. Tarixnavislik asarlari. 5. Tarjimaasarlari. 6. Ogahiyning badiiy mahorati. 7. Ogahiymerosining ahamiyati.
O'quv mashg'ulotining maqsadi	Mavzu yuzasidan axborot ma'lumot berish, misollar keltirish, matnni tahlil qilish.
Tayanch tushuncha va iboralar	Ogahiy hayoti va ijodi; lirikasi, "Ta'viz ul ochiqin" devoni; lirikjanrlar; tarixiy mavzudagi asarlari; tarjimaasarlari; "Ogohnoma" qasidasi
Pedagogik vazifalar:	O'quv faoliyati natijalari:
Mavzuning ilmiy-amaliy ahamiyatini tushuntiriladi	mavzuning ilmiy-amaliy ahamiyatini va uning bugungi mohiyatini tushunib oladi;
Mavzuning amaliy jihatlarini sanaydi	Mavzuning amaliy jihatlarini o'rganadi.
Mavzu yuzasidan amaliy misollar keltiriladi	Qayd etilgan misollarni daftarga yozib oladi va o'zi ham misollar topadi
Matn tahlilini amalga oshiriladi	Matn tahliliga qat'iy amal qiladi
O'qitish vositalari	ma'ruza matni, kompyuter slaydlari, doska
O'qitish usullari	ma'ruza, namoyish, blits-so'rov, klaster, pinbord texnikasi
O'qitish shakllari	frontal, kollektiv ish
O'qitish sharoiti	Texnik vositalar (kompyuter, multimedia proektor) bilan ta'minlangan, guruhlarda ishlash usulini qo'llash mumkin bo'lgan auditoriya.
Monitoring va baholash	Suhbat, kuzatish, savol-javob

Ma'ruzaning texnologik xaritasi

Ish bosqichlari	O'qituvchi faoliyatining mazmuni	Izoh	Tinglovchi faoliyatining mazmuni
1-bosqich. Mavzug a kirish (15 min)	1.1. Mavzuning asosiy mazmuni, tarkibiy tuzilishi va o'rganiladigan savollar (podtema) to'g'risida qisqacha tanishtiriladi.		Tinglaydilar
	1.2. Mavzu bo'yicha o'rganiladigan nazariy va amaliy bilimlar, ularning uzviyligi haqida qisqacha ma'lumot beradi. Asosiy adabiyotlarning ro'yxati bilan tanishtiriladi.		Yozadilar, Tinglaydilar
	1.3. Mavzu yuzasidan tarqatma materialni talabalarga tarqatadi va ulardan foydalanish o'rgatiladi.		Mavzu nomini yozib oladilar
	1.4. Blits-so'rov usulida mavzu bo'yicha ma'lum bo'lgan tushunchalarni sanab berishni so'raladi	ilova	Tushunchalarga javob beradilar
2 – bosqich. asosiy bo'lim (55 min)	2.1. Mavzu rejasi va tayanch tushunchalar bilan tanishtiriladi.		Tinglaydilar
	2.2. Ma'ruza reja asosida tushuntiriladi, har bir savol nihoyasida umumlashtirib boriladi. Jarayon kompyuter slaydlarini namoyish qilish bilan olib boriladi. 2.3. Savollarga o'ylab javob berishlarini va T-sxemadan foydalanib mavzuning ilmiy asoslarini yozib chiqishlari so'raladi: Savol-javob jarayoni boshqaribboriladi va tartibga solinadi	ilova Komp'yuter slaydalar i ilova	Tinglaydilar. Tarqatma materiallar to'plamida keltirilmagan qirralarini konspekt qilib boradilar.
	2.4. Tayanch iboralarga qaytiladi. Tinglovchilar ishtirokida ular yana bir bor takrorlanadi (Pinbord usulida). Mavzuga oid bo'lmagan iboralar olib tashlanib, kerakli tushuncha va iboralar qo'shiladi.	ilova	Har bir tayanch tushuncha va iboralarni muhokama qiladilar. Barcha ma'lumotni tizimlashtiradilar. Konspekt qiladilar.
3-bosqich. Yakunlovchi (10 min)	3.1. Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu bo'yicha olingan bilimlarni qayerda ishlatish mumkinligi ma'lum qilinadi.		Savollar beradilar
	3.2. Mavzu maqsadiga erishishdagi tinglovchilar faoliyati tahlil qilinadi va baholanadi.		
	3.3. Mavzu bo'yicha mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar beriladi.	ilova	Mustaqil o'rganish uchun topshiriqni yozib oladilar
	3.4. Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish uchun adabiyotlar ro'yxatini beriladi.		Yozadilar
	3.5. Keyingi mavzu bo'yicha tayyorlanib kelish uchun savollar beriladi.	ilova	Yozadilar

Zaruriy adabiyotlar:

1. В.Абдуллаев, Ўзбек адабиёти тарихи. 2-китоб, Т.: 1980.
2. Ўзбек адабиёти тарихи, Ака.нашр. 5 томлик 4-том. Т.: 1978.
3. Огаҳий, Асарлар, 6 жилдлик 1-2-жилдлар, Т.: 1872.
4. БердиеваМ. МуҳаммадЮсуф Рожий Хоразмий. Даври. Ҳаёти. Адабий мероси. – Тошкент: “Муҳаррир”, 2013.
5. Долимов С. Огаҳийнинг ҳаёти ва ижоди: фил. фан. номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т.: ЎЗР ФА ТАИ, 1962.
6. Мажидий Р. Огаҳий лирикаси – Тошкент: «Фан», 1963.
7. Муниров Қ. Хоразмда тарихнавислик (XVII – XIX ва XX аср бошлари). – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 2002.
8. Холлиева Г.И. Огаҳий мусамматлари: фил. фан. номзоди... дисс-я Афтореферати. – Т.: ЎЗР ФА ТАИ, 2000.
9. Султонова Қ.А. «Огаҳийнинг «Гулшани давлат» асари адабий манба сифатида: филол. фан. номзоди... диссертация. – Т.: ЎЗР ФА ТАИ, 2000.
10. Шодмонов Н. “Шоҳиду-л-иқбол” – адабий манба. – Тошкент: Фан, 2009.

MA’RUZA MATNI

O‘n to‘qqizinchi asrning birinchi yarmi o‘zbek adabiyoti, xususan Xorazmda vujudga kelgan adabiy harakatning eng ilg‘or vakillaridan biri Ogahiydir. Alohida qayd etish lozimki, Ogahiy o‘zining yuksak iste’dodi, sermahsul ijodiy merosi bilan adabiyotimiz tarixida zabardast olim, talantli shoir, yetuk tarixchi, mohir tarjimon sifatida alohida o‘rin tutadi.

Ogahiy 1809 yilda Xiva shahri yaqinidagi Qiyot qishlog‘ida tavallud topadi. Uch yoshlarida otasi vafot etgach, amakisi Shermuhammad Munis qaramog‘ida tarbiya topadi. Avval maktab, so‘ngra madrasa sabog‘ini oladi. Turmush talablari bilan dehqonchilik qiladi, so‘ngra bir oz muddat harbiy xizmatda bo‘ladi. 1829 yilda Munis vafotidan keyin uning o‘rniga miroblik lavozimiga tayinlanadi.

Ogahiy umri Xorazm xonlaridan Muhammad Rahimxon-1, Olloqulixon, Rahimqulixon, Muhammad Aminxon, Sayyid Abdullo, Qutlug‘murodxon, Saidmuhammadxon hamda Muhammad Rahimxon-2 lar hukmronlik yillarida kechadi. Ma’lumotlarga qaraganda, umrining so‘nggi yillarini tug‘ilgan qishlog‘ida o‘tkazib, 1874 yili 65 yoshida olamdan o‘tadi.

Ogahiy va uning ijodiy merosini o‘rganish 1950 yillardan boshlanadi. 1958 yilda “Tanlangan asarlar”, 1960 yilda “Ta’vizu-l-oshiqin” devoni nashr etiladi. 1971-1980 yillarda Ogahiy asarlarining 6 jildligi nashr qilinadi. Shoir ijodiy merosini o‘rganishda V.Zohidov, G‘.Karimov, S.Dolimov, R.Majidiy, A.Qayumov, J.Sharipov, F.G‘anixo‘jayev, Q.Munirov kabi olimlarning alohida

o‘rni bor.

Ogahiy shoir, tarjimon va bilimdon tarixchi sifatida boy ijodiy meros qoldirgan. Uni juda ko‘p adabiyotshunoslar “Navoiydan keyin eng ko‘p va xub yozgan ijodkor” sifatida talqin qiladilar.

Ogahiy she‘riy merosini o‘zida jamlagan to‘plami uning “Ta’vizu-l-oshiqin” – “Oshiqlar tumori” deb nomlanuvchi devonidir. Uni tuzish 1852 yilda boshlangan. Unda 18000 misra she‘ri jamlangan. Shundan 1300 misrasi fors tilida. Devonning debochasida aytilishicha ham, boshqa ilmiy adabiyotlarda qayd etilishicha ham, “Devon” shoirning barcha she‘rlarini qamrab olmagan. V.Abdullayevning ko‘rsatishicha, devondagi she‘rlarning aksariyati shoirning 60-yillardan keyin yaratgan she‘rlaridir. Lekin bu fikr biro z munozarali.

Hozirda bu devonning 1905 yilda kotib Muhammad Ya‘qub Xarrot tomonidan ko‘chirilgan bir qo‘lyozma hamda 1905 va 1909 yillarda bosilgan 2 ta toshbosma nusxalari bo‘lib, shular asosida u 1958, 1960, 1971– 1972 yillarda kiril yozuvida qayta nashr qilingan.

“Ta’vizu-l-oshiqin” debochasida aytilishicha, shoir umrining so‘nggi o‘n yilligida Muhammad Rahimxon - Feruzning maslahati bilan bunyod etilgan: “Bir necha muddatdin so‘ng bir kun faqirga inoyat bila boqib, dilnavozlik yuzasidan xitob qilib dedikim, barcha musavvada (qoralama)lardagi, bayozlardagi va o‘zga yerlardagi parishon bo‘lgan she‘rlaringni jam’ etib, devon suratida tartib bergil va anga debocha ham yasab, aytilgan ash‘oringni dog‘i hamul devonda o‘z mahallida guhar yanglig‘ tergil. Dedikim, kishidin to qiyomatgacha boqiy qolaturg‘on yodgor va farzandi saodatosor-yaxshi so‘zdur...

Bo‘libdur she‘r yaxshilar shiori,
Jahonda to qiyomat yodgori.
Kishiga she‘rdin yo‘q yaxshi farzand,
Ki doim boqiy ul farzandi dilband.
So‘zingdur o‘zga so‘zlardin ziyoda,
Sango farzand-bizga xonzoda.
Ravo ko‘rma alarga darbadarlik,
Yetimoso hamisha navhagarlik.
Alar haqqinda mehr oyinini tuz,
Vorisin yig‘ibon devong‘a kirguz.
Yamon deb solmog‘il birni nazardin-
Ki, farzand o‘lg‘usi pora jigardin.
Necha yaxshi aro bo‘lg‘ay yamon ham,
Tuman bug‘doy aro bo‘lg‘ay samon ham.
Agarchi ochilur yuz gul chamandin
Va lekin chorasi yo‘qdur tikandin.

Alqissa, bu amri sharifni “Alma’muru ma’zurun” hadisining muqtazosi bila qabul ettim. Necha muddat ko‘p mehnat va mashaqqatlar chekib, aksar ash’orimni jam’ etib, devon suratida bir necha avroq suturig’a bitdim”.

Огаҳий девони таркибига 18 жанрдаги шеърлар кирган. Бу жанрлар quyidagilar:

1. G‘azallar – 445 ta (shundan 23 tasi forsiy), 4056 bayt;
2. Mustazodlar – 3 ta, 24 bayt;
3. Muxammaslar – 84 ta, ulardan 10 tasi o‘z she‘rlari asosida, Navoiy g‘azallariga 31 ta, Fuzuliy g‘azallariga 8 ta, Munis g‘azallariga 7 ta, Rojiy g‘azallariga 8 ta, Dilovar g‘azallariga 2 ta, Feruz g‘azallariga 9 ta, Amir, Xon, Vazir, G‘oziy g‘azallariga 1 tadan taxmis yozgan (yana 5 ta forsiy muxammas, ulardan 4 tasi Bedil va Amir g‘azallariga bog‘langan), 639 band, 3195 misra;
4. Musaddaslar – 5 ta, 36 band;
5. Murabba‘lar – 2 ta, 24 band;
6. Musammanlar – 3 ta, (yana bir forsiy musamman), 27 band;
7. Tarje‘band – 1 ta (4 she‘r), 24 band;
8. Qit‘alar – 7 ta, 21 bayt;
9. Ruboiylar – 80 ta;
10. Tuyuqlar – 10 ta;
11. Muammolar – 80 ta;
12. Chistonlar – 4 ta;
13. Masnaviylar – 4 ta, 450 bayt;
14. Munojot (forsiy) – 27 bayt;
15. Ta‘rixlar – 20 ta, 562 misra;
16. Musovittarafayn – 1 ta;
17. Bahri taviil – 1 ta,
18. Qasida – 19 ta,

Devon tanqidiy matni ustida tadqiqot olib borgan Fathulla G‘anixo‘jayev “Ogahiy klassik poeziyaning 22 turida (janrida – N.Sh) ijod etgan”, degan fikrni aytadi, lekin uni asoslamagan. Bundan qat‘i nazar devon hoshiyasiga bitilgan she‘rlar hamda Ogahiyning tarixiy asarlarida uchraydigan she‘rlar shoir tomonidan qo‘llangan janrlar 18 tadan ko‘proq ekanini ko‘rsatadi. Xususan, tarixiy asarlarning bir necha o‘rnida keltirilgan *fardlar* devonga kiritilmagan. Birgina shu dalil janrlar sonini 19 taga yetkazadi.

Devonidagi ғазаллар 7, 9, 11, ba‘zan 15, 17, 23 baytdan iborat. G‘azal janri rivojida Ogahiyning munosib xizmati bor. U voqeaband, dialog – munozara g‘azallar yaratib janr imkoniyatlarini yanada kengaytirdi. Yor va oshiq muloqoti orqali kichik lirik – dramatik sahna yaratishga erishdi. Qasida janri orqali ham chuqur falsafiy – axloqiy xulosalarini, o‘gitlarini ifodalashga muyassar bo‘ldi. Demak, Ogahiy she‘riyati janr nuqtai nazaridan keng qamrovlidir. Mavzu nuqtai nazaridan yondashadigan bo‘lsak ham, bu merosda o‘ziga xos rang-baranglikni ko‘ramiz. Ma‘shuqaning beqiyos husnu jamoli ta‘rifi, oshiqning turli holatdagi ruhiy kechinmalari tavsifidan iborat an‘anaviy muhabbat mavzusi, axloqiy-

ta'limiy, hayotiy-falsafiy, ijtimoiy-siyosiy masala va muammolar Ogahiy uchun asosiy mavzu bo'lib qolgan.

Agar Ogahiy she'riyatini izchil bir tarzda ko'zdan kechiradigan bo'lsak, ko'z o'ngimizda hayotning achchiq-chuchugini totgan, yaxshi-yomon so'qmoqlardan o'tgan va bu yo'lda ko'rgan-kechirganlaridan umrboqiy xulosalar yasay olgan ogohnuroni bir kishining qiyofasi gavdalanadi.

Ana shu qiyofa ba'zan hayotiy-falsafiy fikrlarini bayon etib, pandu nasihatlar qiladi. Sabrni, qanoatni, hayotda ogohlikni pesha qilmoqlik umrimiz mazmuni, manguligimiz manbai bo'la olishini uqtirmoqchi bo'ladi.

Ba'zan esa u qiyinchiliklar ostida kun kechirayotgan fuqaroning boshini saxiylik bilan, muruvvat bilan, futuvvat bilan silamoq istaydi. O'z davrining podshoh, bek va amaldorlarini yoxud shunga da'vat etadi.

Ba'zan esa o'zi, shariatni tumor qilgani holda, ayrim shariat peshvolarini tanqid qiladi.

Ko'rinadiki, "har toifaning holig'a loyiq... bir mazmun shohidining xayoli xotirim ko'zgusiga zuhur qilsa erdi, gunogun iboratlari bilan rangin nazmlar libosini kiydurub... xaloyiq nazarida namoyish berur erdim", - degan debochada aytilgan fikrlarga ishonch hosil qilamiz.

"Ta'vizu-l-oshiqin" devoniga shoirning "Ash'ori forsiy" sarlavhasi bilan forsiy tildagi she'rlari ham kiritilgan. Ular g'azal, muxammas, musamman, munojot, ta'rix va masnaviylardan iboratdir. Ularning jami 1090 misrani tashkil etadi. Forsiyda yozilgan she'rlar har jihatdan o'zbekcha she'rlardan qolishmaydi, tematik jihatdan mos keladi.

Ogahiy – tarixnavis. Ogahiyning tarixnavislik ijodiy merosining alohida diqqatga sazovor jihati bo'lib, u o'z tarixnavislik faoliyatini Munis tomonidan yozila boshlangan "Firdavsul iqbol" asarining 1812-13 yillardan keyingi davrini yozish va to'ldirish bilan boshlangan deyish mumkin. Shundan keyin Ogahiy turli yillarni qamrovchi 5 mustaqil tarixiy asarni yaratgan:

1. "Riyozi-d-davla"– 1825-42 yillarda Olloqulixon hukmronligi davrida Xorazmda yuz bergan voqealarni bayon qiladi.

2. "Zubratu-t-tavorix" – 1843-46 yillarda hukmronlik qilgan Rahimqulixon davri voqealarini yoritadi.

3. "Jome'u-l-voqeoti Sultoniy" – asosan Muhammad Aminxon davri, umuman 1846-1855 yillar voqealari bayon qilinadi.

4. "Gulshani davlat" – 1855-64 yillarda hukmronlik qilgan Sayyid Muhammadxon davri voqealariga bag'ishlangan.

5. "Shohidu-l-iqbol" Muhammad Rahimxon Feruz hukmronligining 1864-1872 yillari voqealarini o'z ichiga oladi.

Ko‘rinadiki, Ogahiy o‘zining bu tarixiy asarlari bilan Xorazmning yarim asrdan ortiq tarixini bir butun holda jamlay olgan. Bu asarlar hech shubhasiz Xorazm xonligining iqtisodiy-siyosiy hayoti, tashqi va ichki aloqalarini o‘rganishdagi asosiy va eng muhim manba sifatida ahamiyatlidir.

Keyingi davrlarda mazkur asarlarni yaratishda Ogahiy badiiy tafakkurining o‘rni va ishtirokini o‘rgangan olimlar ularning o‘zbek tarixiy nasri taraqqiyotidagi ahamiyati yuqori ekanini e‘tirof qilmoqdalar. Ularning fikricha, har bir qalamga olingan voqea yuqori poetik mahorat bilan ifodalangan.

Ogahiyning nasrdagi uslubi Navoiy va Munis ijodining ta‘sirida shakllangan. «Shohidu-l-iqbol»da saj’ orqali badiiy tasvir kamolga yetkazilgan: «...anjum lashkarining zarrinkuloh podshohi Hut manzilgohidin nur va ziyo markabin nahzat tariqig‘a surdi(*) va o‘zin yuz nav’ tajammul(+) va ming turluk tahashshum(+) bila Hamal sarostonig‘a yetkurdi(*). Navro‘zi(x) jahonafro‘z(x) voqe’ bo‘lub, sig‘ir yili kirdi(-) va bahor sultonining adolati fayzi har tarafga intishor topib, yer yuziga firdavsi barin gulshanidek tarovatu oro berdi(-). Va abri nayson(‘) har tarafdin obi hayvon(‘) chashmasidek qatraafshon(‘) bo‘lub, jahon xoriston(‘)ig‘a behisht bog‘i nazoratin namoyon(‘) qildi... Va otashin gullar... hazin bulbullarning g‘amgin ko‘ngullaridin sabru oromin oldilar(/) va zebo sarvlar chamanlar sahnida g‘oyatsiz barnolig‘ (‘) va dilrabolig‘(‘) bila xiromon bo‘lub, miskin qumrilarning xasta jonlarig‘a ishtiyoq(^) va ehtiros(^) o‘tin soldilar(/)».

Bu yerda *surdi* va *yetkurdi*; *navro‘z* va *jahonafro‘z*; *jahon*, *xoriston* va *namoyon*; *barnolig‘* va *dilrabolig‘* – **saj’i mutarraf**, *tajammul* va *tahashshum*; *ishtiyoq* va *ehtiros* – **saj’i mutavozin**, *kirdi* va *berdi*; *abri nayson*, *obi hayvon* va *qatraafshon*; *oldilar* va *soldilar* – **saj’i mutavoziydir**. Lekin nasrda ularning bunday turlarini aniqlashdan ko‘ra ***fosila*** va ***qarinalarning*** joylashuv mutanosibligiga, shuningdek, saj’ning ma’no-mazmunga ko‘rsatgan ta‘siriga diqqat qaratish ahamiyatliroq.

Muallif asarning ko‘pgina jumllalarida saj’ning bir necha shakllaridan foydalanadiki, ularni bir formulada aks ettirish mumkin emas: «Ammo ba’d, donish(1) arbobining(2) zamiri(3) munirlarig‘a(4) va binish(1₁) as’hobining(2₁) xotiri(3₁) xamirlarig‘a(4₁) ravshanu(5) ma’lum(6) va mubarhanu(5₁) mafhum(6₁) bo‘lsunkim, bu faqiri(7) kasiru(7₁)-t-taqsir(7₂), bandai sadoqatintisob(8), a’ni Muhammad Rizo mirob(8₁) al-mulaqqab bi-l-Ogahiy, birodarzodai Munis mirob(8₂), g‘afurallohu zunubahumo(9) va satara uyubahumo(9₁)kim, shabobat(10) zamoni(11)din to kuhulat(10₁) avoni(11₁)g‘acha doru-s-saltanai Xorazm(12), sonaho-llohu taolo an ofoti-r-razm(12₁) va-l-lazm(12₂), podshohlarining holot(13) va futuhot(13₁)lari voqe’anigorliqig‘a ma’mur erdim(14), andoqkim, alarning farmoni oliylari muqtazosi bila har birining otig‘a alohida holot(13₂) va voqe’ot(13₃)larig‘a mushtamil bir kitob tartib berdim(14₁)».

Misolda 14 ta fosila bo‘lib, ularning ba‘zilari boshqalariga qarindir. Bu hol **tarse’** san’atiga o‘xshasa-da, unga to‘la muvofiq emas. Bir so‘zga ba‘zan ikki, ba‘zan uchtagacha saj‘lanuvchi so‘z keltirilgan.

Ogahiy nasridan bunday misollarni istalgancha topish mumkin.

Ogahiyningtarjimonlikfaoliyatihamjudakattatahsingasazovordir.

Badiiytarjimaharbirmilliyadabiyotningajralmasqismidir.

O‘zbekadabiyotitarixidahambadiiytarjimaborasidakattatajribato‘plangan.

Atoqlitarjimanamoyandalariningsohadagixizmatlaribeqiyos.

Busan’atqanchalikko‘pmutarjimvatarjimaasarlarniqamrabolmasin,

aksarholtarjimamaktabishaklidaemas, xususiyishko‘rinishidarivojlanibkeldi.

Faqatsohaningmumtoznamoyandalaripaydobo‘lganzamonvamakondaginaularninga trofidatarjimamaktablarishakllandi. Qadimgiyunon, Bag’dod, Baloniya, Vavilon, Damashqtarjimamarkazlarixuddishundayyirikmutarjimlaratrofidashakllandi.

O‘zbekmumtozadabiyotiningyirikvakiliMuhammadrizoOgahiyhamo‘zdavridashoir likvatarixnavislikdayuksakmahoratininamoyishetishbarobaridaXorazmtarjimamakt abigaasossolishbilanadabiymerosiqimmatiniyanadaoshirganijodkordir.

Haqiqatan,

ko‘hnaXorazmshoirlariningo‘zbekbadiiytarjimachiligigaqo‘shganhissalarikattae‘tir ofgaloyiq. SayfiSaroyiy, Qutb, HaydarXorazmiy, NurmuhammadAndalibkabishoirlaro‘zfaoliyatlariniindividualshakldaolibborganedi lar. Ularningan‘analariniSHermuhammadMunis XIX asrboshidadavomettirib, MuhammadMirxondning yettijilddaniborat “Ravzatu-s-safo” asaritarjimasigakirishdivabutarjimakeyinchalikmavjudan‘ananingmaktabshakliniol ishigaturtkibo‘ldi.

Munisning“birodarzodavadastparvarda”sibo‘lganOgahiyo‘zfaoliyati, faolligibilano‘shaan‘anani, ya’nixususiyijoddoirasinikengaytirib, tarjimamaktabinivujudgakeltirdivauniengbalandcho‘qqigaolibchiqdi.

IlmiyadabiyotlardaOgahiyningtarjimonlikdagiyuksakmahoratiko‘pboraetirofetildi.

Xususan,

professorN.KomilovtomonidanolibborilgantadqiqotlardaOgahiyningindividualmah orativauningXorazmbadiiytarjimamaktabishakllanishidagixizmatlarihamdabumakt abningo‘zigaxosbirqatorxususiyatlaribelgilabberildi.

ButarjimamarkazivaOgahiyningfaoliyatihaqida Ye.E.Bertel’s, H.Arasli, V.Abdullaev, G’.Karimov, S.Dolimov,R.Majidiy, A.Nosirov, J.SHaripovkabiolimlarhamizlanishlarolibbordilar. Lekinbutadqiqotvaizlanishlarda, asosan, tarjimonningo‘girmaasarlarmundariyasi, ilmiytavsifi, ularningmavzusi, g‘oyasi, mazmun-

mohiyatihamdamuayyanasarningo‘zbekchallashtirilishidagimahoratidoirasidafikryu ritiladi. Buesatarjimamaktabiningshakllanishasoslarivauning

yetakchitamoyillarihaqidagimuhimjihatnito'laaniqlashimkoninibermaydi. SHuning uchun mazkur muammoga diqqat qaratishni lozim hisoblaymiz.

Bumasalada quyidagilar alohida e'tibor talab qiladi:

Birinchidan, XIX

asrda Xorazmda amalga oshirilgan tarjima asarlarimi qdorko'lamijihatidan ham, badiiysaviyasining mukammalligini uqtainazaridan ham barcha muhit va davr tarjimachiligini orqada qoldiradi. Buningsababibu yerdakattarjima uyushmasining vujudga kelgan ibilangina izohlanishi mumkin. SHubhasiz, uni uyushtirish Ogahiy zimmasiga tushgan edi.

Albatta, bu ish juda tez va osonlik bilan amalga oshirilmagan. 1829 yilda Munis vafotidan keyin xonlikda uning tarixnavislik vazifasi Ogahiyga topshirildi. Oradan bir necha yil o'tib Xivasaroyida uning ateng keladigan ijodkoryo' qedi. To'g'ri, bu davrda Ogahiyganisbatan yosh jihatidan biroz ulug'bo'lgan Rojiy taxallus bilan she'r laryozgan Muhammadyusuf, Munshi y taxallus bilan ijod etgan Muhammad nazarismli iste'dodli shoirlarancha-muncha shuhrat orttirgan, davlat va ulamoning e'tirofini qozongan edi. Ularning tarjima gaham layoqatlari yuqoribo'lgan. Lekin ularning tarjima gajiddiy kirishmagan ibu faoliyat Xivada tizimli yo'lga qo'yilmaganiniko'rsatadi.

Ogahiy Munisning tarjimonlika'anasinida vomettirishga kirishishi bilan Xorazmda adabiyot rivojining ta'minlanishi uchun judako'pasarlartarjimasiga ehtiyoj borligini anglatib yetadi. Lekin bu ish bir-ikkita tarjimonning qo'lidankelmasligini hisobga olib, birinchi galdi Rojiy va Munshiylarnio'zatrofigatortdivaularga "Ravzatu-s-safo"ning 5 – 6-daftarlartarjimasini topshirdi. Garchi bu topshiriq manbalarda ulargaxon (Muhammad Aminxon) tomonidan buyurilganizakretilsa-da, tarjimayo'sinikuzatilganda aslholatbu yerdaboshqabirtashabbuskorvanozir-mutasaddibo'lganidandalolat beradi. Bushaxs Ogahiybo'lganishubhasiz.

Ma'lumki, bu asarning birinchi daftari va ikkinchi daftarinig "Chahori izomvoqeoti" gachabo'lgan qismi, ya'niboshi Munis tomonidan tarjima qilingan. Tarjima 1244/1828 yil gacha amalga oshirilgan. 1265/1849 yil gacha, ya'ni Olloqulixon va Rahimqulixon hukmronlik qilgan yigirmayildan ortiq vaqtda unida vomettirishimkonibo'lmadi. Bu orada Ogahiy o'z salohiyati, mehnati va mahoratibilankattamavqega erishgan va kerak vaqtda xongataskliflarinikiritadoladigandarajaga yetgan edi. Mamlakatma'naviy hayotirivojigata'sirko'rsatuvchi omillar haqida taklif kiritishning ijtimoiy hayotdagi eng kattaburchi, vazifasidi. Jumladan, kerakli asarlarnitarjima qilish dasturi ham Ogahiy tomonidan xongakiritilishi mumkin edi. Ma'lum dastursiz yuzlab asarning tarjima qilinishi mushkuldir.

Dasturmuallifiuning bajarilishida ibrat ko'rsatish tabiiy.
SHuning uchun ham Ogahiyo'nto'qqizasarni tarjima qildi. Bunafaqato'zbek,
balki jahon adabiyotida juda kam kuzatiladigan holdir.
SHuma'noda Ogahiy nimum tozo'zbek badiiy tarjimasining sulton sifatida qadrlashga
aqlimiz.

Ikkinchidan,

Ogahiyasossolgan tarjimamaktabida o'zbekchalashtirilgan asarlarmavzuji hatidan faq
attarixiy, axloqiy-didaktik va adabiy asarlarni tashkil qiladi.
Ogahiy tarjima qilgan asarlarning tasnifi dayoq bunga amin bo'lish mumkin.
Ular quyidagicha:

I. Tarixiy asarlar:

Muhammad ibn Xovandshoh Mirxondning "Ravzatu-s-safo"
asaridan ikkinchi va uchinchijildlar. Muhammad Mahdiy Astrobodyning
"Tarixi jahonkushoyi Nodiriy", Muhammad Muqim Hirotiyning
"Tabaqoti Akbarshohiy", Nosiriyning "Ravzatu-s-safo",
Muhammadyusuf Munshiyning "Tazkirai Muqimxoniy" asarlari.

N. Komilovning ta'kidlashicha, ularda O'rtava Yaqin Sharq xalqlarining,
jumladan o'zbek xalqining tarixi ham yoritilganidir.
"Ogahiy ularni tarjima qilish orqali o'z xalqining tarixini o'z tilidatiki lagani edi".

II. Axloqiy-didaktik asarlar:

Husayn bin Ali Koshifiyning "Axloqi Muhsiniy", Kaykovusning
"Qobusnoma", Sa'diyning "Guliston", Jomiyning "Bahoriston",
Muhammad Vorisning "Zubdatu-l-hikoyot", Imomiddin G'ijdivoniyning "Miftohu-
t-tolibin" asarlari. SHuningdek,
usmonli turk tilidan qilingan Muhammad Mahdiy ibn Ahmadning "Daloyilu-l-
xayrot sharhi" kitobi.

Bu asarlar Ogahiyning falsafiy, shuningdek, axloqiy-
estetik qarashlarini aks ettirishga ham xizmat qiladi.

III. Adabiy-badiiy asarlar.

Nizomiyning "Haftpaykar", Xusrav Dehlaviyning "Hashtbihisht",
Abdurahmon Jomiyning "Salamon va Ibsol" hamda "Yusuf va Zulayxo",
Badriddin Hiloliyning "SHohugado" va Zayniddin Vosifiyning "Badoe'u-l-vaqoe"
asarlari.

Ogahiyning tarjimonlik faoliyatiga bag'ishlangan tadqiqotlar, asosan,
manashu uchinchiguruh va ikkinchiguruhdan joy olgan "Guliston"
asari ustida olib borilgan. Boshqalari haqida yo'l-yo'lakay fikrlar bildirilgan, xolos.
Holbuki,
butarjimalarning har birigae'tibor qaratilgan daga in tarjimonning haqiqiy bahosi ni belgi
lash mumkin.

Shuni ham qaydetish lozimki,
mazkur davrda qilingan tarjimalarning hammasi ham Ogahiy dasturiasosida amalga oshirilgan, debbo'lmaydi. Chunki judako'pfiqh, astrologiya, handasavaboshqasohalargadoir kitoblari tarjimasihamborki, Ogahiy muhitiga ularning umummanaloqasiyo'q.
Ba'zansaroyamaldorlariorasidao'qiladigan "Lazzatu-n-niso"
kabi ish ratparastlik kitoblari ham tarjima qilingan, lekin bulardaham Ogahiyning ishtirokebo'lmagan.
Xuddishuasarning tarjimasimunistomonidan qat'iy anrad qilingan ito'g'risidama'lum otlar bor. Ogahiy ham Munise'tiqodidaijod qilgani aynihaqiqat. Binobarin, Ogahiy doirasio'zg'oyaviy-metodologik printsiplariga asoslanib ish ko'rgan.
Demak, *uchinchidan*, Ogahiy tarjima maktabi qat'iy tamoyillarga ega bo'lgan.

XIX

asrda Ogahiy gacha amalga oshirilgan kamsonlibadiiy tarjimalarda jiddiynomukammalliklarko'z gatashlanadi. Masalan, Mullo Muhammad niyoz Urganjiy "Anvori Suhayliy" asari (Kalilava Dimna"ning Koshifiy tomonidan qayta ishlangan varianti) nio'zbekchalashtirishdaxuddishunday nomukammalliklarni sodir qiladi. Xususan, u aksariyat jumalarnio'zbek tilidahamforsiykonstruktsiyalarasosidatuzadi:
"Andog'qilabilmay sanagarbubalonisobitqilsangvada'vongg'agunoho'tkarabilsang, yaxshiliqqayamonliqodamiyzodningodatierkanig'a".

Professor N. Komilov Ogahiydan oldin Dilovar xo'jatomonidan qilingan "Badoe'u-l-vaqoe'"ning tarjimasidahambunday nomukammalliklargayo'lqo'yilganigatalay miso llarkeltiradi, Ogahiy tarjimasining afzalliklariko'rsatiladi. Ogahiy vauningatrofidagitarijimonlar uslubidabunday nuqsonlargadeyarliyo'lqo'yilmaydi. Muxtasarqilibaytish mumkinki, Ogahiydan boshlangan Xorazmiy tarjima maktabi tarjimada quyidagi printsiplarga asoslangan:

1. Tarjima uchun xalq orasida eng ko'pe'tiroftopgan badiiy va axloqiy-didaktika sarlarni tanlash.
2. Tarixiy asarlarni turkiy xalqlaro'tmishiga aloqadorligivaundansaboqolishgaxizmat qilishida rajasiga qarab saralash.
3. Tarjimada Navoiy va Boburasarlari da foydalanilgan eskio'zbek tiliga xos grammatik va imlo qoidalariga qat'iy amal qilish.
4. Tarjimada original asar mazmuni, g'oyasi, poetikasi va muallif uslubini saqlagan holda unga Xorazmadabiy muhitiga xos pafos, ifoda tarzi ni kiritish. Jumladan,

tarixiy asarlarni hamsaj'vabosh qatasir vositalari bilan boyitish ham buni maktabning printsiplaridan edi.

5. Asarmazmuni ilmliziyolilar va oddiy savodxonlarga birday tushunarli bo'lishi uchun asarlar higa mos interpretatsiyadan istalgancha foydalanish.

6. Nasrniko'proqrivojlantirish.

Ogahiyning tarjimonlik faoliyatini anashutamo yillarga to'la asoslanadi.

Uning atrofidagi faoliyat olib borgan saksonga yaqin tarjimon butamo yillarga amal qilishga aqo'llaridan kelgancha harakat qildilar.

Ogahiyning badiiy mahorati. Ogahiy she'riyatida inson taqdiriga, hayoti mohiyatiga munosabati yaqqol o'z ifodasini topadi. Bu bilan bog'liq ravishda komil inson masalasi bosh g'oyaga aylanadi. Shoir merosidagi barcha fikr va g'oyalar ishq tushunchasi bilan chambarchas bog'liq. Ogahiy ham ko'p asarlarida zohiran majozni kuylasa-da, aslida botinan haqiqat oshuftasi ekanligini e'tirof etgan:

*Hamisha botinan rog'ib haqiqat soridur ko'nglum,
Nechakim, zohiran da'bi oning mayli majoz o'lsun.*

Mumtoz adabiyotimizda ishq, Olloh, ochiqlik kabi ulug' tushunchalar bilan ko'ngil tushunchasi hamisha yonma-yon keladi. Chunki inson kamolotga ana shu ko'ngil yo'li orqali boradi. Ko'ngil bu Ollohga vatan bo'luvchi maskan. Ko'ngilga safar o'zini tanish yo'li. Har bir ko'ngil bir vatan. Unda safarda bo'lish o'zini anglash, kamolot hosil qilishdir. Ogahiy bir qit'asida xuddi ana shu mohiyatni tabiat qiyosi bilan teran kashf etib beradi:

*Eyki, zamiringg'a safo istasang,
Sayr qilu, qilma sabot ixtiyor.
Negaki, tag'yir topar obi sof,
Doyim agar qilsa chuqurda qaror.
Ko'rki, quyosh chobukini sayridin,
Har kun ochar charx uza ravshan uzor.*

Ya'ni agar kamolot istasang hamisha ko'nglingga nazar sol. Uni nazorat qilib tur. Ko'ngling sari sayru safarda bo'l. Ma'naviyatini ravnaq toptir. Negaki, toza suv bir chuqur joyda turib qolsa, eskirib yaroqsiz holatga tushadi. Sen esa quyoshdan ibrat ol. U doimiy yuqoriga sayru safari tufayli har kun yorug', tiniq yuz bilan uyg'onaveradi. Ushbu qit'a orqali Ogahiy tasavvuf ta'limotining "safar dar vatan" aqidasi sodda, hayotiy misollar vositasida sharhlab bera olgan.

Ogahiy she'riyati mazmunan chuqur, falsafiy teran bo'lishi bilan birga badiiy jihatdan ham barkamol asarlardir. Uning timsollar olami, tashbehu qiyoslar silsilasi o'ziga xos, yangicha. Har bir an'anaviylik zamiridan yangilik topishga intiladi:

*Emas giryon ko'zimda o'zlari shaklu xayolikim,
Kiyiklardurki, suv istab kelib durlar bulog' uzra.*

Mumtoz adabiyotimizda ko'zni kiyikka o'xshatish yangilik emas. Ammo Ogahiy o'zining izlanuvchan uslubidan kelib chiqib, ana shu an'anaviy qiyosning

kashf etilmagan jihatini topishga intilgan. Endi ko‘zlar oddiy kiyikka emas, balki tashnalab suv izlab buloq bochiga kelgan kiyikka qiyoslanadi.

Mumtoz adabiyotimizda yor qoshi ham an’anaviy tarzda tavsif etiladi. Ammo Ogahiy bunga ham yangicha yondashgan. Qoshning shamshir, yoy, mehrob kabi ko‘plab o‘xshatilmishlari ma’lum. Ogahiy esa buning ham yangi qiyosini topadi:

*Jamoli bog‘ining bodomig‘a qasd etkan o‘g‘ridur,
Xam o‘lmish buki mushkin qoshi ul dilkash qapog‘ uzra.*

Ya’ni shoir nazaricha jamol, chehra bir go‘zal bog‘. Ko‘z bilan qosh oralig‘i – qabog‘ esa bodom. Qabog‘ ustida egilib turgan qosh – bodomni o‘g‘irlash uchun yashirinib boqqa kirgan o‘g‘ri.

Ogahiy hazrat Navoiy ijodiga katta muhabbat bilan qaragan. Ustozi asarlaridan bahramandlik uning iste’dodini badiiy balog‘atning yuqori mavqeiga ko‘tardi. Buni Ogahiyning o‘zi ham mamnunlik bilan e’tirof etadi:

*Ogahiy, kim topqay erdi sozi nazmingdin navo,
Bahra gar yo‘qtur Navoiyning navosidin senga.*

Ogahiy qaysi janrda ijod qilmasin, uni takomillashtirishga, rivojlantirishga harakat qildi. Turkiy adabiyotda deyarli qo‘llanmagan musulmon sharqi adabiyotida mavjud janrlarda asarlar yaratish tajribasini o‘z imkoniyatlari doirasida sinab ko‘rdi. Musovittarafayn janrida yozgan she’ri shundan dalolat beradi. U quyidagicha:

Ul sho‘xki	ochildi	xatti	ruxsori
Ochildi	rayohinda	yuzi	gulnori
Xatti	yuzi	besabru qarori	menman
Ruxsori	gulnori	menman	zori

Yoki mustazodning Ogahiygacha bo‘lgan shakli bilan u tomonidan yozilgan mustazodlar solishtirilganda ham, shoirning ijodiy imkoniyatlari juda yuqori ekani ayon bo‘ladi. Qiyoslash uchun shoirning an’anaviy va ijodiy yo‘lda yozilgan ikki mustazodi matla’iga murojaat qilamiz:

Hajring tunida qolmisham, och, ey mahi tobon,
xurshid kibi yuz,
Ko‘nglum uyini seli g‘aming ayladi vayron,
vaslingdin ani uz...

Ey yor, sango ushbu jahon bog‘i aro gul
bir oshiqi hayron,
diydoringa shaydo,
Bir shiftadurur kokuli mushkinga sunbul,
har holi parishon,
ham boshida savdo...

Ogahiyning badiiy mahorati uning muammolarida ham yaqqol ko‘rinadi. Odatda, bu janrda faqat eng salohiyatli shoirlargina ijod etganlar.

“**Muammo**” nomiga muammo:

*Suvda ko‘zu og‘zi aksi uylakim ko‘zgu aro,
Umri behad topg‘usi boqsa kishi gar su aro.*

Hal qilish: Suv (arabcha: mo) aro ko‘z (arabcha “ayn” harfi) va og‘iz (“mim” harfi) ko‘rinadi.

“**Navro‘z**” nomiga muammo:

*Gul g‘amida garchi bulbul nolalar chekkusi tun,
Lek vasli bargidin behad navo topg‘usi kun.*

Hal qilish: Kun – forscha: ro‘z, “navo” behad (oxirgi harfi tushirilgan) bo‘lsa – “nav” qoladi. “Nav” bilan “ro‘z” birlashtirilsa, “Navro‘z” bo‘ladi.

Ushbu adabiy ta’sir masalasi Ogahiyning taxmislari va mustaqil g‘azallari vositasida yanada kengroq yoritilishi mumkin.

Mavzunimustahkamlashuchunsavollar:

1. Ogahiyninghayotyo‘lihaqidaso‘zlabbering.
2. Ogahiyadabiymerosiningo‘rganilishiqachonboshlanganvaunikimlaro‘rganan?
3. SHoirninglirikmerosinitavsiflang.
4. Ogahiyningtarixnavislikfaoliyatiniqandaybaholaysiz?
5. Ogahiyqaysiasarlarnio‘zbektiligatarjimaqilganvatarjimadaqandaytamoyillargaasoslangan?

Kelgusima‘ruzagatayyorlanishuchuntopshiriqlar:

1. Qo‘qonxonliginingXVII – XIXasrlardagisiyosiy, iqtisodiyvamadaniyahayotigadoirmateriallarbilantanishish.
2. FazliyNamangoniyning “Majmuaishoiron” tazkirasihaqidama‘lumotlarto‘plashvao‘rganish.
3. Po‘lotjonQayyumiyning “TazkiraiQayyumiy” asaridanQo‘qonxonligigadoirmateriallarnito‘plashvao‘rganish.
4. Gulxaniyning “Zarbulmasal” asarinio‘qibkelish.
5. Amiriy (AmirUmarxon), NodiravaUvaysiydevonlaribilantanishibkelish.